

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV HO'JALIGI VAZIRLIGI

TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA INSTITUTI

"AXBOROT TEXNOLOGIYALARI"
kafedrası



INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

fanidan kurs ishini bajarish bo'yicha

METODIK KO'RSATMA

TOSHKENT - 2013

Ushbu metodik ko'rsatma institut ilmiy-metodik kengashining 2012 yil " 7 "
dekabr da bo'lib o'tgan 3 - sonli majlisida ko'rib chiqilgan va
chop etishga tavsiya etilgan.

Ushbu metodik ko'rsatmada kurs ishini bajarish bo'yicha ko'rsatmalar, kurs ishi bo'yicha variantlar, kurs ishini rasmiylashtirish va himoya qilish tartiblari keltirilgan bo'lib, u barcha ta'lim yo'nalishlari talabalariga mo'ljallangan.

Tuzuvchilar:

Abdullayev Z.S., f.-m.f.n., dotsent

Mirzayev S.S., t.f.n., dotsent

Yusupov M., f.-m.f.n., dotsent

Mavlonov S.P., assistent

Taqrizchilar:

Yuldashev Z.X., O'zbekiston milliy universiteti "Informatika va tadbiqiy dasturlash" kafedrası professori, f.-m.f.d.

Xudoyarov B.A., t.f.d.

KIRISH

Fan va texnikaning jadal ravishda rivojlanishi har bir mutaxassisdan yetarlicha murakkab masalalarni yechishni talab etmoqda. Bu masalalarni yechishda bir qator amaliy dasturlardan foydalanish mumkin. Ayrim masalalarni yechish uchun esa dasturiy ta'minotlar yaratiladi. Har qanday masalani yechishda uning yechish usullari ishlab chiqiladi va unda bajariladigan amallar ketma-ketligi (algoritmi) asosida dasturlar tuziladi.

Institutning barcha ta'lim yo'nalishlarida ta'lim olayotgan talabalarga «Informatika va axborot texnologiyalari» fanida reja asosida dasturlash tillaridan biri o'rgatiladi va ulardan sodda masalalar uchun dasturlar tuzish talab qilinadi.

Talaba «Informatika va axborot texnologiyalari» fanini Paskal dasturlash tilidan kurs ishini bajarish bilan yakunlaydi. Kurs ishini bajarish talabalarning dasturlash malakasini oshirish bilan birgalikda, o'z soha masalalarini yechishda foydalaniladigan dasturiy ta'minotlar tayyorlash uchun tayyorgarlik vazifasini o'taydi.